

QADIMGI YOZUVLAR HAQIDA (XORAZM, KUSHON, BAQTRIYA VA OROMIY YOZUVLARINING TARIXI)

Ashurov Sodiqjon

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi

1-bosqich 14T-2023 guruh talabasi

Email adres: sodiqjonashurov536@gmail.com

Telefon raqami:+998915137504

Oqbo'tayev Abdulaziz

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi

1-bosqich 14T-2023 guruh talabasi

Email adres: oqbotayevabdulaziz@gmail.com

Telefon raqami:+998904119202

G'ulomov Jahongir

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi

1-bosqich 14T-2023 guruh talabasi

Email adres: gulomoyjahongir@gmail.com

Telefon raqami:+998936934033

Qurbanov Hasan

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi

1-bosqich 14T-2023 guruh talabasi

Email adres: samadkdkdksks@gmail.com

Telefon raqami:+998938880539

Annotatsiya. Avvalo usbu maqolada qadimgi yozuvlar haqida so`z borgan va shu bilan birgalikda ularning vujudga kelishi, turlari haqida ma'lumotlar keltirilga. Xorazm, Kushon, Baqtriya va Oromiy yozuvlarning vujudga kelishtarixiga ham nazar solamiz.

Kalit so`zlar. Yozuv, qadimgi yozuvlar, Kushon, Oromiy, Xorazm, Baqtriya yozuvlari, piknografik yozuv, logografik yozuv, bo`g`in yozushi, harfiy yozuv

Kirish. Yozuv- muayyan bir tilda qabul qilingan va kishilar o`rtasidagi muloqatga xizmat qiladigan yozma belgilari yoki tasvirlar tizimi. Yozuv kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma'nosidagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomilijarayonidagi omillarning eng asosiyalaridan biri. Yozuv tildan ancha keyin paydo bo`lgan. Og`zaki tilning zamon va makon nuqtai nazaridan

cheklanganligi va uni bartaraf etish zaruriyati yozuvning paydo bo`lishiga sabab bo`lgan. Insoniyat tarixida yozuv juda qadim zamonlardan beri mavjuddir. Ibdridoijamoa davrida odamlar o`z fikrlari, xohish-istiklari, biror voqe-a-hodisa haqidagi xabarni turli xil narsa-predmetlar yordamida ifodalaganlar. Lekin bu hali yozuv hisoblanmas edi. Ma'lum muddat vaqt o'tganidan keyin u yoki bu fikrni bildira oladigan shartlu belgilar paydo bo`lgan. Bu shartli belgilardan keyin biz yozuv deb yuqorida ta'rif bergan ma'lum tizimga ega bo`lgan belgilar vujudga kelgan. Eramizdan avvalgi to`rtinchı ming yillikda Arabiston yarim orolidagi qadimgi davlatlar hududida Misr va Shummerda yozuvlar paydo bo`lgan. Ikkinci ming yillikning boshlariga kelib, O`rta Yer dengizi qirg`oqlarida ossuriylar va bobiliylar yozuvi shakllangan. Hozirgi Hindistonning Shinoliy qismi va Old Osiyo hududlarida esa hind yozuviga asos solingan.

Undan keyinroq, yozuvning g`arbiy-somiy tizimi vujudga kelgan. Umuman insoniyat tarixi yozuvning to`rt qadimiy turini biladi:

1. Pikenografik yozuv. Bu istiloh lotincha “piktus” rasm, surat; “grafo” yozaman qismlaridan iborat bo`lib rasm yozuv demakdir.
2. Logografik yozuv. Bu istiloh “logos” so`z mantiq va “grafo” yozaman so`zlaridan shakllangan. Jamiyat rivojlanishida davom etar ekan, har bir predmet yoku har bir tushuncha shu predmet yoki tushunchaning surati yordamida ifodalana boshlagan.
3. Bo`g`in yozuvi. Eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillikning o`rtalarida va birinchi ming yillikning boshlarida ilgarigi yozuvga nisbatan qulayroq va soddaroq bo`lgan yozuv shallana boshlagan.
4. Harfiy yozuv. Yozuvning bu turida tildagi har bir tovushga bittadan harf yoki belgi to`g`ri keladi. Bu tizimdagi yozuv hech bir istisnosiz finikiylar, suriyaliklar va falastinliklar ijod etgan somiy yozuvga borib taqaladi.

Keling endi shu o`rinda qadimda ma'lum bo`lgan yozuvlar tarixi bilan ham tanishib chiqamiz.

Qadimgi xorazm yozuvi. Qadimgi Xorazm yozuvi oromiy yozuvi asosida shakllangan. Bu eng qadimgi yozuv Oybo`yirqal'ada xum sirtiga yozilgan yzouv bo`lgan. Arxeologik ma'lumotlarga ko`ra bu yozuv miloddan avvalgi V-VI asrlarga oid. Miloddan avvalgi IV-III asrlarga oid yana bir Xorazm yozuvi Qo`yqirilgan qa'adan topilgan. Bu yozuv sopol idish sirtiga tushirilgan. Manba yagona “aspabarak”-“Otliq, chavandoz” so`zidan iborat bo`lgan.

Baqtriya yozuvi-bu yozuv O`zbekistonning janubida (Surxon vohasi) va chegaradosh Tojikiston, Shimoliy Afg`oniston yerlarida joylashgan tarixiy-madaniy viloyat aholisining yozuvidir. Baqtriya yozuvi ikki xil oromiy va qadimgi yunon alifbosiga asoslanib rivojlangan. X. Yunker, E. Xersfeld va R. Kyuriel asarlarida baqtriya yozuvi yunon kursiv yozuvlaridan kelib chiqib e'tirof etilgan edi. Baqtriya

yozuvi paleografiyasiga R.Kyuriel, A. Marik, X.Xumbax, R.Gyobl, I.Gershevich va V.A.Livshislarning asarlarida maxsus bo`limlar ajratishgan. Baqtriya yozuvining ikki turi-monumental va kursiv turlari ajratib ko`rsatiladi. Monumental yozuvlarga belgilarning o`zaro ulanmasligi, harflarning burchakli va dumaloq shaklda yozilishi xos bo`lib, bu so`zlarni o`qishda yengillik tug`diradi. Kursiv yozuv so`zidagi harflar biri ikkinchisiga ulanib yozilish uslubidir.

Kushon yozuvi Kushon davlatida yashagan xalqlarning o`zaro madaniy va savdo-sotiq aloqalari tufayli O`rta Osiyoda qadimgi oromiy yozuvi keng tarqaladi. Bu yozuv G`arbiy Osiyoda paydo bo`lib, alifboga asoslanganligi tufayli o`zlashtirish ancha oson bo`lgan. Qadimgi Termiz yodgorliklarini o`rganish natijasida oromiy yozuvi asosidagi kushon-baqtriya alifbosidagi yozuv namunalarini topilgan.

Kushon mamlakatida yana kushon shakli yozuvi mavjud bo`lgan, bunda harflar burchakli, to`rtburchak va aylana shaklida yozilgan. Kushon podsholigida yozuv qadimdan mavjudligini Surxko`tal (Afg`onistonidagi Qunduz shahri yaqinida) yodgorligidan topilgan yunon alifbosidagi kushon bitiklari ham tasdiqlaydi. Amudaryoning quyi oqimida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida oromiy alifbosi asosida xorazmiy va so`g`diy yozuvlari ham keng tarqalgan.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yozuvning kashf etilishi insoniyat tarixida juda katta hodisa bo`lgan. Yozuv vositasida inson o`zidan uzoqda bo`lgan boshqa inson bilan aloqada bo`la olgan, shuningdek, u yoki bu ma'lumotlarni o`zidan keyingi avlodga qoldirish imkoniyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati

1. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. Toshkent 2007.
2. M.T. Irisqulov. “Tilshunoslikka kirish”. Toshkent. “Yangi asr avlod” 2009
3. Prof. Karimov S.A “Tilshunoslik nazariyasi” Samarqand 2012 O`zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. Abdullayeva, N. (2022). FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE AMONG STUDENTS-FUTURE TRANSLATORS USING A TEACHING THESAURUS. Eurasian Journal of Academic Research, 2(6), 1207-1210.
5. Gafforov, I., & Abdulkhay, K. (2022). The Role of Assessment in Language Teaching. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION, 1(4), 31-34.
6. kizi Shermamatova, S. U. NEOLOGISMS IN MODERN UZBEK AND ENGLISH AND THE HISTORY OF THEIR ORIGIN.
7. Kosimov, A. (2022, January). THE ROLE OF THE ENGLISH LANGUAGE IN THE FURTHER DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN. In International journal of conference series on education and social sciences (Online) (Vol. 2, No. 1).

8. Shermamatova, S., & Nazirova, Z. (2022, April). SCIENTIFIC ANALYSIS OF LEXICOGRAPHY IN UZBEK LANGUAGE. In International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding (Vol. 1, No. 2).
9. Shermamatova, S., & Yusupova, S. (2022, April). TR
10. <https://fayllar.org/yangiyol-poligraf-servis-toshkent--2017-a-s-sagdullayev-v-a-ko.html?page=12>
11. <https://muhaz.org/mavzu-eng-qadimgi-davrda-yozuvning-paydo-bolishi.html>

